MINGBULOQSOY QOYATOSH RASMLARI DASTLABKI TADQIQOTI XUSUSIDA

© 2024. Azbiddin Xolmatov, Timur Ruziboyev

Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

Kalit so‘zlar: Mingbuloqsoy, soya uslubi, kontur uslubi, oddiy sxematik uslub. 3D.

Ushbu maqolada Mingbuloqsoyning geografik joylashuvi, tabiati, haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada bu soy darasidagi qoyatosh rasmlari tadqiqotlarida zamonaviy qurilmalar (GPS, Canon foto aparati, fotoshop, agisoft, QGIS) dan foydalangan holda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari haqida so’z yuritiladi. Xususan, “agisoft” dasturi yordamida bazi qoyatoshlarning 3D modeli tayyorlangan bo’lsa, QGIS dasturi yordamida qoyatosh rasmlarining joylashuv xaritasi yaratildi. Mingbuloqsoyda joylashgan qoyatosh rasmlari slanes toshlarning tekis sathlariga urib-cho’kichlash, tirnab chizish va ishqalash texnikalari asosida chizilganligini shuningdek, chizilish uslubiga ko’ra soya, kontur, naqshdor bezakli va sxematik uslublarda ishlanganligini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari bu petrogliflarning oftobda kuyish darajasiga keladigan bo’lsak kuchli, kuchsiz va o’rtacha darajalarda kuyganligini guvohi bo’lamiz. Ushbu tadqiqot mazkur soy hududidan topilgan yangi qoyatosh rasmlarining chizilish uslubi, ishlanish texnikasi, mazmuni, oftobda kuyish darajalari o’rganilishi va qiyosiy talqini asosida ularning davriy yoshini aniqlashga qaratilgan. Mingbuloqsoy qoyatosh rasmlari xronologik jihatdan bronza, ilk temir (Sak-skif), antik, ilk va so’nggi o’rta asrlar hamda zamonaviy davrlarga tegishli ekanligi aniqlandi.

О ПРЕДВАРИТЕЛЬНОМ ИССЛЕДОВАНИИ НАСКАЛЬНЫХ РИСУНКОВ МИНГБУЛАКСАЯ

© 2024. Азбиддин Холматов, Тимур Рузибоев

Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова


Ключевые слова: Мингбулаксай, теневой стиль, контурный стиль, простой схематичный стиль, 3D.

В статье содержится информация о географическом положении и природе Мингбулаксая. Рассматриваются результаты научных исследований, проведенных с использованием современных устройств (GPS, камера Canon, Photoshop, Agisoft, QGIS) при изучении наскальных рисунков в ущелье этого ручья. В частности, с помощью программы «agisoft» была подготовлена 3D-модель некоторых скальных поверхностей, а с помощью программы QGIS создана карта расположения наскальных рисунков. Выявленые наскальные рисунки, расположенные в Мингбулаксай, выполнены на плоских поверхностях сланцевых пород с использованием приемов удара, при царапывания и растирания. Использованы также теневые, контурные, узорчатые и схематические стили, в зависимости от характера рисунка. Судя, в степени загара петроглифов, можно отметить, их сильно, слабо и умеренные оттенки. Целью исследования является определение хронологического возраста новых наскальных рисунков, обнаруженных в районе этого ручья, на основе их стиля, методов обработки, содержания и степени солнечного нагара, а также их сравнительной интерпретации. Установлено, что наскальные рисунки Мингбулаксая хронологически относятся к эпохам бронзы, раннего железа (сако-скифскому), античности, раннего и позднего средневековья, а также нового времени.


Kirish

Mingbuloqsoy qoyatosh rasmlari Jizzax viloyati Forish tumani Kalsari qishlog’ining soy bo‘ylab yuqori qismi hududlarida, 40.2348 shimoliy kenglikda, 67.0102,5 sharqiy uzunlikda va dengiz sathidan 1161–1215 metr balandlikda joylashgan (Пардаев ва бошқ. 2024: 275–286). Mingbuloqsoy Shimoliy Nurota tog’ tizmasi Qorasoy cho’qqisidan oqib tushuvchi soy daralaridan biri bo‘lib, bu soy darasi suvlari Kattasoyga kelib qo‘shiladi. Mazkur soy darasi ikki yon tomonlari baland qirliklardan iborat bo‘lib, chorvachilik uchun juda qulay hududlardan biri hisoblanadi. Uning soy o‘zani tekis va yashash va dehqonchilik uchun terassalardan iborat. Shu boisdan bu hududlar qadimdan ovchi va ko‘chmanchi chorvador aholi yashashi uchun qulay bo‘lgan. Bu soyning Mingbuloq deb atalishi bejizga emas, chunki soy asosan yirik buloq suvlaridan to‘yinadi. Sersuv buloqlarning ko‘pligi esa qadimdan bu hududlarda yovvoyi hayvonlarning serob bo‘lganligidan dalolat beradi. Buni mana shu soy darasi yonbaridagi qoyatoshlarga qadimgi rassomlar tomonidan chizilgan turli yovvoyi hayvonlar va ularni ov qilish bilan bog‘liq tasvirlarning ko‘pligi ham isbotlab turibdi.

Bugungi kunda Kalsary qishlog’ida 80 xo’jalik atrofida aholi yashab, ular o‘zlarini 92 o‘zbek urug‘i tarmoqlariga kiruvchi turkman va kalsary urug’lari vakili ekanligini ta’kidlaydi. Bu qishloqda yashovchi aholi vakillarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik va shu bilan birgalikda lalmikor dehqonchilik, bog‘dorchilik va uy hunarmandchiliklaridan iborat. Mingbuloqsoydagi buloqlar suvidan mahalliy aholi vakillari ichimlik suvi sifatida va tomorqalarini sug‘orish maqsadida foydalanadi. Yilning seryog‘in bahor oylarida bu soyda suv serob bo‘lib, soyda yoz oylarida ham suv qurib qolmaydi.



1-rasm. Mingbuloqsoy qoyatosh rasmlarining samodan umumiy ko’rinishi
Рис. 1. Общий вид наскальных рисунков Мингбулоқсай с высоты
Fig. 1. A general aerial view of the Mingbuloqsoy petroglyphs



2-rasm. Otliq, tuya, tog’echki, bo’ri? tasvirlari
Рис. 2. Лошадь, верблюд, горный козел, волк? изображения
Fig. 2. Images of a horse, a camel, a mountain goat, a wolf?

Materiallar


Mingbuloqsoy darasida olib borilgan arxeologik qidiruv tadqiqot ishlar natijasida 300 dan ziyod qoyatosh rasmlari aniqlanib, zamonaviy GPS qurilmasi yordamida koordinatalari olinib, kartografik xaritasi tuzib chiqildi (1-rasm).

Mingbuloqsoy qoyatoshlari slanes va mayda zarrali qumtoshli tog‘ jinslaridan tarkib topgan bo‘lib, mana shu qoyalarning tekis sathlariga qadimgi rassomlar tomonidan turli-tuman tasvirlar urib-cho‘kichlash, o‘yish texnikalarida ishlangan. Rasmlarning asosiy qismi soyning chap qirg‘og‘idagi qoyatoshlarga chizilgan. Chunki, soyning chap yon bag‘ridagi qoyatoshlarga quyosh nurlari yaxshi tushadi va deyarli kun buyi shu issiqdan bahramand bo‘ladi. Bu jarayon qoyatosh sathlarining quruq bo‘lishini ta’minlaydi va shu boisdan ham ularning ustida mox va lishayniklarning o‘sishi juda sust bo‘ladi. Soyning quyoshga teskari joylarida esa buning aksini kuzatish mumkin.

Bu yodgorlik qoyatosh rasmlari turli syujetlarga boy bo‘lib, ular mana shu atrofda yashagan qadimgi qabila va urug‘larning ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda diniy hayotiga oid bo‘lgan turli kompazitsion tasvirlardan iboratdir. Ilmiy izlanishlarimiz davomida bu soy yonqayirlaridagi



3-rasm. Odam, yovvoyi ho’kiz,ot, to’ng’iz, it, tuya, tog’ echki tasvirlari
Рис. 3. Изображения человека, дикого быка, лошади, кабана, собаки, верблюда и горного козла
Images of a human, a wild bull, a horse, a boar, a dog, a camel, and a mountain goat



4-rasm. Odam, yovvoyi ho’kiz, yirtqich (qoplon yoki gepard), bir va ikki o‘rkachli tuya, bo‘ri, it va tog‘ echkilari tasvirlari
Рис. 4. Изображения человека, дикого быка, хищника (леопарда или гепарда), одногорбого и двугорбого верблюда, волка, собаки и горного козла
Images of a human, a wild bull, a predator (leopard or cheetah), one-humped and two-humped camels, a wolf, a dog, and a mountain goat

qoyatoshlarda odam, ibtidoiy buqa-tur, yovvoyi cho’chqa, ot, tuya, qulon, bug’u, arxar, tog’ echkilari, bo’ri, it, mushuksimonlar oilasiga mansub yovvoyi yirtqich hayvonlar (gepard, yo’lbars), ilon, otliq, turli geometrik shakldagi belgilar, lotin, krill alifbosidagi yozuvlar, rim raqamlari, noaniq xira tasvirlar borligini aniqlandi (Пардаев ва бошқ. 2024).

Kompozitsion tarzdagi manzaralarda kamondan o’q otayotgan odam, ot minib ketayotgan suvori, odamlarning qo’llarida tayoqlar bilan yovvoyi cho’chqani ovlayotgani, yurib ketayotgan tog’ echkilari kabi jarayonlarni ko’rishimiz mumkin. Mingbuloqsoyda joylashgan qoyatosh rasmlari slanes toshlarning tekis sathlariga urib-cho’kichlash tirnab chizish va ishqalash texnikalari asosida




5-rasm. Odam, tuya, it, tog’ echkilari tasvirlari
Рис. 5. Изображения человека, верблюда, собаки и горного козла
Fig. 5. Images of a human, a camel, a dog, and a mountain goat





6-rasm. Bars, yovvoyi cho’chqalar, yurib ketayotgan tog’ echkilari, belgi tasvirlari va chala qolgan tasvirlar
Рис. 6. Леопарды, кабаны, горные козлы, символы и незавершенные образы
Fig. 6. Leopard, wild boars, mountain goats walking, symbols and incomplete images



7-rasm. Noaniq belgi tasviri
Рис. 7. Нечеткое изображение персонажа
Fig. 7. Unclear image of a figure

chizilganligini shuningdek, chizilish uslubiga ko’ra soya, kontur, naqshdor bezakli va sxematik uslublarda chizilganligini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu petrogliflarning oftobda kuyish darajasiga keladigan bo’lsak kuchli, kuchsiz va o’rtacha darajalarda kuyganligini guvohi bo’lamiz. Bu soy darasida olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida tasvirlar qadimgi rassomlar tomonidan 3 sm dan to 25 sm gacha bo’lgan turli o’lchamlarda chizilganligi aniqlandi.

Mingbuloqsoy darasida olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida dastlab, bu yerda aniqlangan qoyatoshlar ro‘yxatga olinib, raqamlashtirib chiqildi. Jumladan, shunday qoyatoshlardan birida qadimgi rassomlar tomonidan soya, kontur va sxematik uslublarda, o‘yish, urib-cho’kichlash, tirnab (qirib) chizish va ishqalash texnikalarida chizilgan tasvirlar ro‘yxatga olindi. Ularning oftob ta’sirida kuyganlik darajasi turli ko‘rinishda bo‘lib, ba’zilari quyosh nurida kuchli kuyib tosh sathi rangi bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘lsa, ayrimlari och jigarrang ko‘rinishda ancha yorqinligi bilan ajralib turadi. Qoyatoshda tasvirlangan tog’ echkilari qadimgi rassom tomonidan yakka yoki qo’sh shoxli, ikki yoki to’rt oyoqli, kalta dumli ko‘rinishda mahorat bilan aks ettirilgan bo‘lib, ular asosan alohida mazmundagi tasvirlardan iborat. Bundan tashqari, qoyatoshning yuqori qismida soya va sxematik uslublarda ishlangan otda ketayotgan suvori tasvirlari ham mavjud bo’lib, ular ketma-ket ko‘rinishda biror joyga ketayotgan holatda ifodalangan. Bu qoyatoshdagi eng qiziqarli tasvirlardan biri qoyatoshning chap burchagida qadimgi rassom tomonidan urib-cho’kichlab, soya-kontur tarzda hayvon uslubida yotgan holatda ishlangan arxar yoki tog‘ echkisi tasviri juda chiroyli aks ettirilgan. Ammo, keyingi rassomlar tomonidan qayta ishlanib, fantastik ko‘rinishdagi yirtqich hayvon tasviriga o‘zgartilganligining guvohi bo‘lish mumkin (2-rasm). Tadqiqotlarimiz davomida yuqorida aytib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlar ularning kishilik tarixiy taraqqiyotining turli davrlariga xususan, ilk temir, antik va o‘rta asrlar davriga oidligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz tomonidan mazkur soy darasi qoyatoshlariga ishlangan turli yovvoyi hayvonlar tasviri bejizga chizilmagan. Chunki, ular mana shu hududlarda yashagan qadimgi ovchi va chorvador aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy va xo‘jalik hayoti bilan bevosita bog‘liqdir. Bu qoyatosh rasmlari orqali Mingbuloqsoy va uning atrof hududlarida yashagan qabila va elatlar turmush tarzinigina ifodalab qolmay balki, bu yerdagi qadimgi davr hayvonot dunyosi to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradi. Bu qoyatosh rasmlari orqali mazkur hududda yashagan hayvon turlari va turli kompozitsion manzaralarda ular bilan bog‘liq bo‘lgan voqea hodisalarni o‘rganish mumkin. Mingbuloqsoy qoyatoshlaridan birida qadimgi rassom tomonidan mana shunday tasvirlar juda yaxshi tasvirlangan. Bunda qoyatoshning rasm chizish uchun qulay tekis sathli yuzasiga yirik hajmda ibtidoiy ho‘kiz (buqa-tur) tasviri aks ettirilgan bo‘lib, u vazmin tanali, yirik boshli, kalta va qalin bo‘yinli, oyoqlari kalta va baquvvat, dumi uzun va uchi popukli, shoxlari uzun va orqaga qaytgan ko‘rinishda tasvirlangan. Ammo, buqa tasvirida noodatiy jihatlar mavjud bo‘lib, odatda ibtidoiy buqa tasvirlarida ularning shoxlari oldinga yoki yuqoriga tomon yo‘naltirilgan bo‘lsa, bu tasvirda buqa shoxlari xuddi tog‘ takasining shoxlari kabi ortga qayrilgan. Qoyatoshda tasvirlangan bu ibtidoiy buqa alohida yakka tarzda ishlangan bo‘lib, biror kompozitsion manzara sahnasida aks ettirilmagan. Ammo shunisi qiziqki, bunday uslubda chizilgan buqa tasviriga o‘xshash rasmlar Respublikamizdagi shu kabi qoyatosh rasmlari yodgorliklari qoyatoshlarida hozircha uchratilmadi. To‘g‘ri, qadimgi ibtidoiy buqa-turlarga xos jihatlar bu tasvirda ham mavjud ya’ni vazmin tanasi, yirik boshi, oyoqlari kalta, dum uzun va uchi popukli. Mana shu o‘ziga xos xususiyatlari xususan tasvir yuzasidagi qurol izlari, oftob nuri ta’sirida kuchli kuyganligi va tabiat hodisalari natijasida qoyatosh asl yuzasi kabi marganes birikmasi bilan qoplanganligi jihatlari mamlakatimiz hududidagi Sarmishsoy (Хўжаназаров ва бошқ. 2001: 88–110), Qoraqiyasoy (Хўжаназаров ва бошқ. 2012: 54–57), Noqisoy (Холматов 2010: 166–169), Ilonbuloqsoy (Хўжаназаров ва бошқ. 2012: 111-117), Quduqchasoy (Холматов ва бошқ. 2014: 103–110), Burgansoy (Хўжаназаров ва бошқ. 1991), Bironsoy (Хўжаназаров ва бошқ. 2003:196–202) kabi yodgorliklardagi buqa tasvirlariga juda o‘xshashdir. Mingbuloqsoydan topilgan buqa-tur tasviri ushbu yuqoridagi yodgorliklardan topilgan va soha mutaxassislar tomonidan neolit, eneolit, bronza davrlariga oid deb aytilgan buqa-tur rasmlariga ba’zi chizilish uslubi, ishlanish texnikasi va oftobda kuyish darajalari bilan o’xshashligini o‘rganish natijasida bu buqa tasvirini ham qadimgi rassom tomonidan bronza davrida chizilgan deb xulosa qilishimiz imkonini beradi. Ammo, bu tasvir mazmunan yuqoridagi yodgorliklardan topilgan buqa-tur tasviridan farq qiladi (3-rasm).

Shuningdek, bu qoyatoshda qadimgi rassomlar tomonidan urib-cho‘kichlangan turli yovvoyi hayvonlar va odamlarning alohida yoki kompozitsion sahnalardan iborat tasvirlari ham mavjud. Ular kishilik tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yashagan rassomlar tomonidan chizilgan bo‘lib, bunda eng qadimgi tasvir ustidan keyingi davr rasmlarining urib cho‘kichlanishi natijasida ular bir nechta qatlamni tashkil etadi.

Bu soy darasida ro‘yxatga olingan 16-toshda ham juda mazmunli tasvirlarni uchratish mumkin. Bu qoyatoshda yakka holatda yoki biror kompozitsin manzaralarda aks etgan odam, buqa (ibtidoiy ho‘kiz), mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich (qoplon yoki gepard), tog‘ echkilari, bir va ikki o‘rkachli tuya, bo‘ri, it va boshqa shu kabi tasvirlar soya, kontur va oddiy sxematik uslublarda, uib-cho‘kichlash, tirnab chizish (qirish) texnikalarida juda mahorat bilan ishlangan (4-rasm). Ular orasida mushuksimonlar oilasiga mansub yovvoyi yirtqich tasviri ayniqsa e’tiborli bo‘lib, u kontur, naqshdor-bezakli uslubda tumtoq tumshuqli, kalta bo’yinli va tanasi uzun, gepard yoki qor barsi tanasidagi xol-xol dog‘lari bilan old va orqa oyoqlari esa birlashtirib chizilgan. Ammo, qoyatoshning sinib tushishi oqibatida yirtqichning quloqlari, boshining va tanasining ustki qismlari ko’rinmay qolgan. Tadqiqotlar davomida bu kabi tasvirlar Nurota tog’ tizmasidagi Sarmishsoy (Хўжаназаров

ва бошқ. 2018:43) va Qoraqiyasoy (Хўжаназаров ва бошқ. 2012: 54–57) yodgorliklarida ham qayd qilinganligi aniqlandi va ular soha mutaxasislari tomonidan bronza davri bilan davrlashtirilgan.

Shuningdek, xuddi shu yo’qoridagi toshga tegishli qoyatosh rasmlari orasida tog’ echkisi tasvirlari ham mavjud bo‘lib, ular soya uslubida ishlangan tarang va tik qomatli, qo’sh shoxli, oyoqlari uzun va baquvvat ikki yoki to’rt oyoqli, kalta dumli qilib tasvirlangan. Bu tog’ echkisi tasvirlari ustidan soya uslubidagi odam tasviri ham urib-cho’kichlangan va buqa(tur) tasviri bilan bitta tosh yuzasida bir xil ishlanish texnikasida tasvirlangan. Ularning oftobda kuyish darajalari ham bir xil xuddi tosh yuzasi kabi qoraygan. Bunday tog‘ echkilari tasvirlari Respublikamizdagi Suzmoyilota (Холматов 2018: 48–49), Quduqchasoy (Холматов ва бошқ. 2014: 103–110) yodgorliklarida ham o‘rganilgan. Demak, Mingbuloqsoydagi bu kabi tog‘ echkilari tasvirini ham buqa tasvirlari bilan bir davrga tegishli ekanligini asoslash imkoniyatini beradi.

Shuningdek, soy o‘zanida 25–30 metr yuqorida janubi-g‘arb tomonga qaragan slanes qoyatoshning tekis sathiga chizilgan tog‘ echkilari tasvirlari ayniqsa diqqatli bo‘lib, ular qadimgi rassomlar tomonidan soya va sxematik uslublarda urib-cho’kichlash, tirnab chizish texnikalarida ishlangan. Bu tog’ echkilari rassomlar tomonidan turli ko‘rinishlarda yotgan, sokin turgan va yurib ketayotgan holatlarda aks ettirilgan bo‘lib, biror kompozitsion manzaralarda ifodalanmagan. Tog’ echkilari tasvirlari orasida ayniqsa yotgan holatda, soya uslubida urib-cho’kichlangan tog’ echkisi tasviri kishi diqqatini o’ziga tortadi. Bu tog’ echkisi juda ham mohirona tasvirlangan bo’lib, hayvon uslubida urib-cho’kichlanganligini ko’rishimiz mumkin (5-rasm). Bu tog‘ echkisining chizilish texnikasi va uslubiga ko‘ra tarixiy jihatidan ilk temir davriga oidligini aytishimiz mumkin.

Mingbuloqsoydagi yana bir qoyatoshlardan birida qadimgi rassom tomonidan yovvoyi to‘ng‘izlar podasi aks ettirilgan bo‘lib, ular asl ko‘rinishlari kabi mahorat bilan chizilgan (6-rasm). Tasvirda yovvoyi to‘ng‘izlar podasi o‘ng tomonga yugurib ketayotgan holatda chizilgan bo‘lsa, ularga yon tomondan mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon hujum qilmoqda. Demak, qoyatoshga rassom o‘z davrida qor barsi yoki qoplonning yovvoyi to‘ng‘izlarni ov qilayotgan manzarasini yoritgan. Bu tasvirda yovvoyi to‘ng‘izlar yo’g’on va kalta bo’yinli, bo‘yni va yelkasida yoli bilan kichik va baquvvat tanali, oyoqlari kalta, quloqlari yoli bilan birlashib ketgan holatlarda tasvirlangan. Ular chizilish uslubiga ko’ra soya uslubida urib-cho’kichlanganligini shuningdek, oftobda kuyish darajasi kuchli va tosh sathi rangi bilan uyg‘unlashib ketgan. Bunday uslubda ishlangan to‘ng‘iz tasvirlari qoyatosh rasmlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, shunga o’xshash rasmlar Qoraqiyasoy yodgorligida (Хўжаназаров ва бошқ. 2012: 54–57) va Mongoliya hududlaridagi ba’zi yodgorliklar qoyatoshlarida (Кубарев ва бошқ. 2005: 100–104) uchraydi va ilk temir (sak–skif) davri bilan sanalashtirilgan.

Shu bilan birgalikda tadqiqotlarimiz davomida 19-raqam bilan ro‘yxatga olingan qoyatosh sathida daraxtni eslatuvchi belgi tasviriga duch keldik. Uning ishlanish texnikasi biroz qo‘pol va urib cho‘kichlangan qurol izlari ham yirik ko‘rinishda. Oftobda kuchli kuygan va tosh sathi rangi bilan bir xil holatda. Bu tasvirda o’rtada to’g’ri chiziq bo’lib, bu chiziqdan ikkita yarim aylana shakl o’tgan va bu kishiga xuddiki, daraxt shoxlarini eslatadi (7-rasm). Tadqiqotlarimiz davomida bunga o’xshash tasvirlar yoki belgilarni Qozog’istondagi Oqqaynar (Hermann va boshq. 2023: 140–154) petrogliflari orasida ham borligini ko’rishimiz mumkin. Shuningdek, Turkiston shahridagi Kultobe (Смагулов ва бошқ. 2019: 156–197) yodgorligidan topilgan sopol idishlarning sirtida ham ushbu belgiga o’xshash tasvirlar uchraydi. Bu idishlar milodiy I–III asrlar (Qang’lar davri) ga tegishli madaniy qatlamlardan topilgan. Bundan tashqari Qirg’izistondagi Sulaymantov (Tashbayeva va boshq. 2001: 63–64) yodgorligi qoyatoshlarida ham borligi qayd qilingan. Bu tadqiqotchilar bu kabi tasvirlarni milodiy asr boshlari va ilk o‘rta asrlarda yashagan qabila va elatlarga tegishli tamg‘alar ekanligi borasida fikr bildirgan. Mingbuloqsoydan topilgan bu tasvir ham biror qabila vakillariga tegishli xususiy mulkchilikning bir belgisi bo‘lganligi ehtimoldan holi emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mingbuloqsoy qoyatosh rasmlari insoniyat tarixiy taraqqiyotining bronza, ilk temir (sak-skif), antik, ilk o’rta asr, o’rta asr va keyingi davrlarda mana shu hududda yashagan ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi, diniy, madaniy va ma’naviy hayotini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri ekanligini hisoblanadi. Shimoliy Nurota tog’ tizmasi janubi-sharqidagi ushbu hududlarning ov va chorvachilik qilish uchun qulay hududlardan biri bo’lganligi va qadimgi odamlar tomonidan ibtidoiy buqa, tog’ echkilari, arxarlar, bug’ular, kiyiklar ko’p yashagan joylarda ov qilib chorvachilik bilan shug’ullanganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, qoyatoshlarda turli yovvoyi hayvonlar tasvirlarining chizilishi bu yerlar o‘ziga xos hayvonot va o‘simlik dunyosiga boy bo‘lganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Кубарев В. Д., Цевеендорж Д., Якобсон Э. Петроглифы Цагаан-Салаа и Бага-Ойгура (Монгольский Алтай). Новосибирсик-Улан-Батор-Юджин, 2005. С.100–104.

Пардаев М., Пардаев Ш., Холматов А., Имомов А., Рўзибоев Т. 2023 йилда Фориш туманида олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари / Масъул муҳаррир: М. М. Саидов // Узбекистонда археологик тадқиқотлар. 16-сон. Самарқанд, 2024. С. 275–286.

Пардаев М., Холматов А., Пардаев Ш., Холбоев З., Турсунқулов Ф., Имомов А., Рўзибоев Т. 2023-йил Жиззах вилоят Ғаллаорол, Фориш туманлари ҳудудида олиб борилган археологик дала-қидирув тадқиқотларининг илмий ҳисоботи. Самарқанд, 2024. Я.Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти илмий архиви. Ф.6 О.6 D.81.

Смагулов Е. А., Яценко С. А. Серии знаков из оазисов Южного Казахстана // Тамги доисламской Центральной Азии. Вестник МИЦАИ, 2019. С. 159–197.

Холматов А. Н. Ноқисой янги қоятош расмлари // Ўзбекистон археологияси №1. Самарқанд, 2010. Б. 166–169. 1-расм.

Холматов А. Н. Нурота тизмаси қоятош расмларининг маданий тегишли жихатлари ва даврий талқини масаласи // Ўзбекистон археологияси №1 (16). Samarkand, 2018. Б. 48–49. 3- расм.

Холматов А. Н., Хўжаназаров М. Қудуқчасой қоятош расмлари // Ўзбекистон археологияси. №2 (9) Самарқанд, 2014. Б. 103–110. 1-расм.

Хўжаназаров М. Навоий петроглиф отрядининг 1991-йил Самарқанд вилояти қоятошларини ўрганиш бўйича хисоботи. Самарқанд, 1991. Я. Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти илмий архиви. Ф.4. О.1. Д.2.

Хўжаназаров М. Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар). Тошкент: NURFAYZ, 2018. Б. 43. Расм. 44.

Хўжаназаров М., Мирзаахмедов Ж., Грицина А., Рахимов К. По археологическим исследованиям в Навоийской области по теме // Археологически исследования в Карманинском регионе в 2000 году. Самарқанд, 2001. Научный архив Самаркандского института археологии им. Я. Гулямова. Ф2. О1. Д.155.

Хўжаназаров М., Холматов А. Н. Илонбулоқсой қоятошларидаги расмлари // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. №38. Samarkand, 2012. Б. 111–117.

Хўжаназаров М., Холматов А. Н. Қорақиясой қоятош суратлари тадқиқотларига доир // Глав. ред. А. Э. Бердимурадов // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. № 37. Самарқанд, 2012. С. 54–57.

Хўжаназаров М. М., Развадовский А. Петроглиф гуруҳининг 2002 йилда олиб борган дала ишлари // Ответственный редактор Т.Ш. Ширинов // Археологические исследования в Узбекистане 2002 год. Вып. 10. Ташкент, 2003. С. 196–202.

Hermann L., Zheleznyakov B. Tamga Petroglyphs from Akkainar (Almaty Region) in Kazakhstan // Қазақстан археологиясы № 4 (21). Almaty, 2023. С. 140–154, рис.6 a, b.

Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. Bishkek, 2001. P. 63–64. Fig. 97. h

REFERENCES

Hermann L., Zheleznyakov B. 2023. *Tamga Petroglyphs from Akkainar (Almaty Region) in Kazakhstan.* In *Qazaqstan arkheologiyasy (Archeology of Kazakhstan)*. № 4 (21). Almaty, 140–154. (In English).

Kholmatov A. N. 2010. *Noqisoy yangi qoyatosh rasmlari (New rock paintings of Nokisay).* In *Uzbekiston arkheologiyasi (Archaeology of Uzbekistan).* No 1. Samarqand, 166–169. (In Uzbek).

Kholmatov A. N. 2018. *Nurota tizmasi qoyatosh rasmlarining madanij tegishli zhikhatlari va davrij talqini masalasi (The cultural significance of the Nurota Range rock paintings and the issue of their historical interpretation).* In *Uzbekiston arkheologiyasi (Archaeology of Uzbekistan).* No 1 (16). Samarkand, 48–49. (In Uzbek).

Kholmatov A. N., Khuzhanazarov M. 2014. Quduqchasoj qoyatosh rasmlari (Kudukchasaj rock paintings). In *Uzbekiston arkheologiyasi (Archaeology of Uzbekistan).* No 2 (9). Samarqand, 103–110. (In Uzbek).

Khuzhanazarov M. 1991. *Navoij petroglif otryadining 1991-jil Samarqand viloyati qoyatoshlarini urganish bujicha hisoboti (Navoij petroglif otryadining 1991-jil Samarqand viloyati qoyatoshlarini urganish bujicha hisoboti).* Ya. Gulomov nomidagi Samarqand arkheologiya instituti ilmij arkhivi. F.4. O.1. D.2. (In Uzbek).

Khuzhanazarov M. 2018. *Sarmishsoj (qoyatosh rasmlari, ilmij tadqiqotlar) (Sarmishsoj (qoyatosh rasmlari, ilmij tadqiqotlar).* Toshkent: Nurfayz Publ., 43. (In Uzbek).

Khuzhanazarov M. M., Razvadovskij A. 2003. In Shirinov T. Sh. (ed.). *Petroglif guruhining 2002 jilda olib borgan dala ishlari (Fieldwork conducted by the Petroglyph Group in 2002).* In *Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2002 god (Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2002 god).* Issue 10. Tashkent, 196–202. (In Uzbek).

Khuzhanazarov M., Kholmatov A. N. 2012. Berdimuradov A. E. (ed.). *Qoraqiyasoj qoyatosh suratlari tadqiqotlariga doir (On the research of the Karakiyasaj rock paintings).* In *IMKU (History of material culture of Uzbekistan).* No 37. Samarқand, 54–57. (In Uzbek).

Khuzhanazarov M., Kholmatov A. N. 2012. *Ilonbuloqsoj qoyatoshlaridagi rasmlari (Paintings on the rocks of Ilanbulaqsaj).* In *IMKU (History of material culture of Uzbekistan).* No 38. Samarkand, B. 111–117. (In Russian).

Khuzhanazarov M., Mirzaakhmedov Zh., Gritsina A., Rakhimov K. 2001. *Po arkheologicheskim issledovaniyam v Navoijskoj oblasti po teme (On archaeological research in the Navoi region on the topic).* In *Arkheologicheski issledovaniya v Karmaninskom regione v 2000 godu (Archaeological research in the Karmaninsky region in 2000).* Samarqand, Nauchnyj arkhiv Samarkandskogo instituta arkheologii im. Ya. Gulyamova. F2. O1. D.155. (In Russian).

Kubarev V. D., Tseveendorzh D., Yakobson Eh. 2005. Petroglify Tsagaan-Salaa i Baga-Ojgura (Mongolskij Altaj). Novosibirsik-Ulan-Bator-Yudzhin, S.100–104. (In Russian).

Pardaev M., Kholmatov A., Pardaev Sh., Kholboev Z., Tursunqulov F., Imomov A., Ruziboev T. 2024. *2023-jil Zhizzakh viloyat Fallaorol, Forish tumanlari hududida olib borilgan arkheologik dala-qidiruv tadqiqotlarining ilmij hisoboti (Scientific report of archaeological field research conducted in the Fallaorol and Farish districts of Zhizakh region in 2023).* Ya. Gulomov nomidagi Samarқand arkheologiya instituti ilmij arkhivi. F.6 O.6 D.81. Samarqand. (In Uzbek).

Pardaev M., Pardaev Sh., Kholmatov A., Imomov A., Ruziboev T. 2024. Saidov M. M. (ed.). *2023 yilda Forish tumanida olib borilgan arkheologik qidiruv tadqiqotlari (Archaeological exploration studies conducted in the Forish district in 2023).* In *Uzbekistonda arkheologik tadqiqotlar (Archaeological research in Uzbekistan).* Issue 6. Samarqand, 275–286. (In Uzbek).

Smagulov E. A., Yatsenko S. A. 2019. *Serii znakov iz oazisov Yuzhnogo Kazakhstana (Series of signs from the oases of Southern Kazakhstan)*. In *Tamgi doislamskoj Tsentral’noj Azii (Tamgas of pre-Islamic Central Asia).* Samarkand, IICAS Publ., 159–197. (In Russian).

Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. 2001. Petroglyphs of Central Asia. Bishkek, 63–64. (In English).

PRELIMINARY STUDY OF THE MINGBULOQSOY PETROGLYPHS

© 2024 Azbiddin Kholmatov, Timur Ruziboev

Samarkand Institute of Archeology named after Ya. Gulyamov

Keywords: Mingbuloqsoy, shadow style, outline style, simple schematic style, 3D.

This article presents information about the geographical location and natural features of Mingbuloqsoy. It also outlines the results of scientific research conducted with the help of modern tools and technologies (including GPS, Canon camera, Photoshop, Agisoft, and QGIS) during the study of rock art in the gorge of this stream. Notably, using Agisoft software, 3D models of several rock surfaces were created, while QGIS was employed to produce a map of the locations of the petroglyphs.

The rock paintings of Mingbuloqsoy are made on the flat surfaces of shale rocks, using techniques such as pecking, scratching, and rubbing. Their styles vary — some are rendered in silhouette, outline, patterned, or schematic forms, depending on the artistic conventions of their time. In terms of weathering, the petroglyphs show varying degrees of tanning: heavily, moderately, or slightly darkened.

The aim of this study is to establish the chronological framework of newly discovered rock art in the area, based on stylistic features, production techniques, content, and degree of sun exposure, while also offering comparative interpretations. As a result, it was determined that the rock paintings of Mingbuloqsoy date to several distinct periods: the Bronze Age, Early Iron Age (Saka-Scythian period), Antiquity, Early and Late Middle Ages, and the Modern era.